

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING AYOLLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI
OLISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIKNI
TAKOMILLASHTIRISH JIHATLARI**

Vahobjonov Dilmurod Dilshodovich
*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
kafedrasi o'qituvchisi.*

Valijonov Javohir Jahongir o'g'li
IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 317 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada profilaktika inspektorining ayollar jinoyatchiligini oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish faoliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Xususan, mahalla, xotin-qizlar qo'mitalari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikning huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ayollar o'rtasida jinoyatchilikka olib keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy omillar ochib berilgan hamda profilaktika inspektori faoliyatida hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha taklif va xulosalar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar. *profilaktika inspektori, ayollar jinoyatchiligi, fuqarolik jamiyati institutlari, jinoyatlarni oldini olish, mahalla, xotin-qizlar, profilaktika, ijtimoiy hamkorlik.*

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda jinoyatchilikning oldini olish, ayniqsa ayollar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarni profilaktika qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayollar jinoyatchiligi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, ma'naviy va oilaviy muammolar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, profilaktika inspektorining faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mahalla instituti, xotin-qizlar masalalari bo'yicha jamoat tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa jamoatchilik sub'ektlari bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali ayollar o'rtasida jinoyatchilikka sabab bo'luvchi omillarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyati kengayadi.

Ayni paytda, profilaktika inspektorlarining mazkur sohadagi hamkorlik faoliyatini yanada takomillashtirish, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni mustahkamlash, amaliy tajribani boyitish zarurati mavjud. Ushbu maqolada aynan shu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ayollar jinoyatchiligini oldini

olishda profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy takliflar bayon etilgan.

Ayollar jinoyatchiligi jamiyatdagi umumiy jinoyatchilik tizimining tarkibiy qismi bo'lib, u o'ziga xos ijtimoiy va psixologik jihatlarga ega. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy sabablari sifatida oilaviy muammolar, ishsizlik, kambag'allik, ma'naviy-axloqiy muhitning zaiflashuvi, zo'ravonlik holatlari hamda huquqiy ongning yetarli darajada shakllanmaganligi ko'rsatiladi. Shuningdek, ayrim hollarda erta nikoh, ajrimlar, yolg'izlik va ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi ham ayollarni jinoyat sodir etishga moyil qilishi mumkin.

Ayollar jinoyatchiligining salbiy oqibatlari nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsga, balki uning oilasi, farzandlari va jamiyatga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, ayniqsa ayollarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Uning asosiy vazifalaridan biri jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan ayollarni aniqlash, ular bilan individual profilaktik ishlarni olib borish hamda jinoyatga olib keluvchi omillarni bartaraf etishdan iborat.

Profilaktika inspektori o'z faoliyatida aholi bilan bevosita muloqot olib boradi, oilaviy muhitni o'rganadi, muammoli holatlarni aniqlaydi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda chora ko'radi. Ayollar jinoyatchiligini oldini olishda profilaktika inspektorining faqat huquqni muhofaza qilish funksiyasi emas, balki ijtimoiy yordam, maslahat va yo'naltiruvchi vazifalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayollar jinoyatchiligini oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik qilish profilaktika ishlarining samaradorligini oshiradi. Bunda mahalla fuqarolar yig'ini, xotin-qizlar qo'mitalari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari muhim sub'ektlar hisoblanadi.

Mahalla instituti orqali oilalardagi muammolarni erta aniqlash, ijtimoiy yordamga muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Xotin-qizlar qo'mitalari esa ayollarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularni ish bilan ta'minlash va ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlar esa psixologik yordam, reabilitatsiya va qayta ijtimoiylashuv jarayonlarida samarali ishtirok etadi.

Takidlash joizki, jinoyatka qarshi kurash va jinoyatlar profilaktikasini ta'minlashda ichki ishlar organlari faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiladigan huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha jarayon izchil davom etmoqda.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari har qanday yo'nalishdagi faoliyatni hamkorliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining ma'muriy hududda xizmat olib borayotgan sohaviy xizmatlarning oldida turgan asosiy va dolzarb vazifalardan biri ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatka qarshi kurash hamda uning oldini olishga qaratilgan dastlabki profilaktik chora-tadbirlarni amalga

o'shishni taqozo etadi. Umuman olganda, ayollar bilan ishlash ichki ishlar xodimlarida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai- nazardan jamiyatdagi har qanday xotin- qizlar bilan ishlashda ichki ishlar organlari, birinchi galda, ushbu toifadagi shaxslar bilan ishlashga, ularga tarbiyaviy ta'sir choralari qo'llashga vakolatli va qobiliyatli bo'lgan jamoatchilikka, aniqrog'ini aytganda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ular huzuridagi jamoat tuzilmalari bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika xizmatlari ayollar o'rtasida jinoyatning oldini olishda asosan ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari bilan quyidagi hamkorlikdagi ishlarni olib boradi :

- ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish,
- keng jamoatchilik o'rtasida turli mavzularda suhbatlar o'tkazish,
- fuqarolarni jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga rioya etish hamda ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash,
- shaxsda endi shakllanayotgan va rivojlanayotgan g'ayriijtimoiy salbiy xulq-atvorni to'xtatish, zararsizlantirish,
- sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning hamda jinoyatlarning oldini olish,
- fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish,
- ommaviy axborot vositalari orqali ayollar o'rtasida jinoyatningni oldini olishga qaratilgan mavzularda chiqishlar qilish,
- xizmat hududidagi narkotik moddalar, shahvoniy ruhdagi materiallarni tarqatuvchilar, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar sodir etayotgan jinoiy guruh tarkibidagi ayollar ulushining ko'pligi, shuningdek, axloq- odob doirasidagi jinoyatlarning kelib chiqishida ayollarning hissasi katta ekanligini fuqarolarga yetkazish,
- qizlarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash,
- oila quradigan yoshlarning oila,jamiyat oldidagiburchi va ma'suliyatini anglabyetishlari, "mustahkam oila" g'oyasining amaliy ifodasini ta'minlash maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish,
- voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan jinoyatlar yoki boshqa g'ayriijtimoiy jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, ularni vujudga keltiradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga ko'maklashish,
- "Oila-mahalla –ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuining amalga oshirilishiga ko'maklashish,

- oilalarga voyaga yetmaganlarning ma'naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etishda, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ko'maklashish,

- qizlarni ish bilan ta'minlashda, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash, hunar o'rganish, kasanachilik bilan shug'ullanish.

Ayollar orasida sodir etilayotgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini asosan ijtimoiy hayotning bunday tasniflash zarur profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni qayerlarda amalga oshirish kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Jinoyat sodir etuvchi ayollar profilaktikasini amalga oshirishdan oldin yuqorida keltirilgan barcha toifadagi shaxslarning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosan shaxsdagi jinoiy xulqni keltirib chiqaradigan hususiyat va sifatlarni aniqlash, ularni baholash va shunga ko'ra ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotgatatbiq etishni nazarda tutadi.

Profilaktik ishlarni samarali amalga oshirishda huquqbuzar va unga moyilligi bo'lgan ayollar bilan psixologik aloqa o'rnatish, ularga ta'sir ko'rsatish orqali amalga oshirilishi e'tirof qilinadi. To'g'ri muloqatga kirishish-ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatidir. Bu, ayniqsa profilaktik faoliyatning ajralmas qismi sifatida tan olinadi. Zero, profilaktika ishlar huquqbuzar ayollar bilan dastlabki munosabati muomala orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda ishtirok etuvchi shaxslar bilan munosabatini o'rnatish olmasligi, amaliy faoliyat ishtirokchilarining psixik holatlarini, ularning mazkur jarayondan ko'nikmalarini aniqlay olmasligini, o'z nuqtai nazariga o'zgaralarni professional tarzda ko'ndira olmasligi, shaxsni uning ichki kechinmalari va o'z o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmasligi psixologiyada kommunikativ uquvsizlik yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Bunda profilaktika inspektori va shaxs bir birini tushuna olmasligioqibatida jinoyatlar sodir etilishining oldi olinmay qoladi va jinoyatlar yana sodir etilishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy ijtimoiy psixologiya yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida, huquq psixologiyasida ichki ishlar organlari xodimlarini kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda kommunikativlik hosil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, shaxslararo munosabatga kirishib, o'z professional mahoratini namoyon eta olmaydi.

Profilaktika inspektori va mahalla faollari shaxslar bilan psixologik aloqa o'rnatish va rivojlantirish jarayonida psixologik to'siqlarga duch keladi. Bu psixologik to'siqlar befarqlik, ishonmaslik, nafrat, xarakteri bir biriga to'g'ri kelmaslikdan kelib chiqadi. Demak, psixologik to'siqlarning bor yoki yo'qligi odamlarning shaxsiy hususiyatlariga bog'liq.

Profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini takomillashtirish uchun, avvalo, o'zaro hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash lozim. Hamkorlik mexanizmlari aniq belgilab qo'yilgan holda, har bir sub'ektning vazifa va mas'uliyatlari aniqlashtirilishi kerak.

Shuningdek, profilaktika inspektorlari uchun ayollar bilan ishlashga ixtisoslashgan o'quv-seminarlar tashkil etish, psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish maqsadga muvofiq. Axborot almashinuvini raqamlashtirish, qo'shma tadbirlar, davra suhbatlari va profilaktik uchrashuvlarni tizimli ravishda o'tkazish ham hamkorlik samaradorligini oshiradi.

Ayollar jinoyatchiligini oldini olishda profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- ayollar o'rtasida jinoyatchilikka moyillikni erta aniqlash bo'yicha qo'shma monitoring tizimini joriy etish;
- ijtimoiy xavfli ahvoldagi ayollar uchun reabilitatsiya va maslahat markazlari faoliyatini kuchaytirish;
- huquqiy targ'ibot ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- profilaktika inspektorlari, mahalla va xotin-qizlar tuzilmalari o'rtasida muntazam tajriba almashuvini yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi chora-tadbirlar profilaktika inspektori faoliyatida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga hamda ayollar jinoyatchiligini oldini olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ayollar jinoyatchiligini oldini olish jamiyat xavfsizligini ta'minlashda muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohada profilaktika inspektorining faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligi jinoyatlarni barvaqt oldini olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari ko'p qirrali bo'lib, ularni bartaraf etishda faqat huquqiy choralar yetarli emas. Mahalla, xotin-qizlar qo'mitalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qilish orqali ayollarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni qo'llab-quvvatlash va huquqiy ongini yuksaltirish mumkin.

Shu bilan birga, profilaktika inspektorlari faoliyatida hamkorlikning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, axborot almashinuvini kuchaytirish, individual profilaktika ishlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur. Profilaktika inspektorining ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish ham ayollar jinoyatchiligini oldini olish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, profilaktika inspektorining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuv ayollar jinoyatchiligini

kamaytirish, oila va jamiyat barqarorligini mustahkamlash hamda huquqiy davlat qurilishiga erishishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. Aliqulovich T. A., Shukurjon o'g'li I. J. Кибержиноятларга қарши курашнинг замонавий тенденциялари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 33-40.
3. Aliqulovich T. A., Bahodir o'g'li B. A. Raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan tovlamachilik jinoyatlariga qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 9-14.
4. Aliqulovich T. A., Axmat o'g'li M. A. Majburiy jamoat ishlari bilan bog'liq jazoga hukm qilingan shaxslar bilan ishlashda iio profilaktika inspektorlarining asosiy vazifalari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 4-8.
5. Aliqulovich T. A., Ilhom o'g'li B. S. Badanga og'ir tan jaroxati yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar profilaktikasini tushunchasi va uni amalga oshirish choralari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 87-92.
6. Aliqulovich T. A. et al. Терроризм билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш этиш ва амалга оширишнинг хусусиятлари //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 29. – С. 15-20.
7. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonliklarning viktimologik profilaktikasi tushunchasi, turlari va ijtimoiy xavfi //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 213-219.
8. Aliqulovich T. A., Shavkat o'g'li C. A. Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini oldini olishning huquqiy asoslari //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 220-226.
9. Aliqulovich T. A., Akmal o'g'li M. A. Haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish jazosining tushunchasi va vazifalari //Научный Импульс. – 2025. – Т. 4. – №. 39. – С. 39-43.
10. Aliqulovich T. A., Nazirjon o'g'li I. D. Profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilik jinoyatlarini oldini olish faoliyatining tashkiliy asoslari //Научный Импульс. – 2025. – Т. 4. – №. 39. – С. 202-207.
11. Asilbek O'tkir o'g' N. et al. Ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga sud organlari tomonidan belgilangan cheklovlariga rioya etilishini nazorat qilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Ijodkor o'qituvchi. – 2025. – Т. 5. – №. 54. – С. 11-17.

12. Aliqulovich T. A., Qaxramonjon o'g'li N. J. Profilaktika inspektorining qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasi bo'yicha faoliyatini takomillashtirish yo 'nalishlari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 4. – №. 40. – С. 147-153.
13. Таштемиров А. А. и др. Профилактика инспекторининг нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорлигининг ўзига хос хусусиятлари //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Т. 4. – №. 47. – С. 189-196.